

O'ZBEKISTON TASHQI SIYOSATIDA TINCHLIKSEVARLIK VA YAXSHI
QO'SHNICHILIK JIHLARINING USTVORLIGI

Sherqo'ziyev Nasimbek Nodirbek o'g'li

Farg'ona viloyati yuridik texnikumi "Sud-huquqiy faoliyat" yo'nalishi

2-bosqich 24-22-guruh o'quvchisi

Telefon: +998903082938

nasimxonsherqoziyev4@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10408824>

Annotatsiya. Ushbu maqolada davlatimizning xalqaro maydonda o'z milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda ochiq va pragmatik, konstruktiv muloqotga qodir, tinchliksevar davlat va yaxshi qo'shnichilik an'analariga sodiq ishonchli hamkor davlatga aylanib borayotganligi borasida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston strategiyasi, tashqi siyosat, strategik sheriklik, suveren tenglik, kuch ishlatmaslik, kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, hududiy yaxlitlik, tinch yo'l bilan hal etish, ichki ishlariga aralashmaslik.

THE PRIORITY OF PEACE-LOVING AND GOOD-NEIGHBORLY ASPECTS
IN UZBEKISTAN'S FOREIGN POLICY

Abstract. This article talks about the fact that our state is becoming an open and pragmatic, constructive dialogue, peaceful state and a reliable partner state loyal to the traditions of good neighborliness, based on its national interests in the international arena.

Key concepts: New Uzbekistan strategy, foreign policy, strategic partnership, sovereign equality, non-use of force, non-threat of force, inviolability of borders, territorial integrity, peaceful resolution, non-interference in its internal affairs.

ПРИОРИТЕТ МИРОЛЮБИВЫХ И ДОБРОСОСЕДСКИХ АСПЕКТОВ ВО
ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКЕ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. В данной статье речь пойдет о том, что наше государство, исходя из своих национальных интересов на международной арене, становится открытым и прагматичным, способным к конструктивному диалогу, миролюбивым государством и надежным партнером, верным традициям добрососедства.

Ключевые понятия: Стратегия нового Узбекистана, внешняя политика, стратегическое партнерство, суверенное равенство, неприменение силы, угроза силой, неприкосновенность границ, территориальная целостность, мирное урегулирование, невмешательство во внутренние дела.

Kuzatib borayotganimizdek, so'nggi yillarda mamlakatimizning xalqaro maydonda nufuzi keskin ortib, sifat o'zgarishlariga erishdi, o'z milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda ochiq va konstruktiv muloqotga qodir, mas'uliyatli va oldindan bashorat qilish mumkin bo'lgan obro'li sherik bo'lishga intilmoqda.

Muhtaram Prezidentimizning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida "Mamlakatimizning tashqi siyosat sohasidagi muhim ustuvor yo'nalishi dunyoning yetakchi davlatlari va xalqaro tashkilotlari bilan strategik sheriklik hamda hamkorlikning muvozanatlangan tizimini shakllantirishdan iborat" ekanligi ta'kidlandi.¹

O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining muqaddima qismida "O'zbekistonning jahon hamjamiyati va eng avvalo, qo'shni mamlakatlar bilan o'zaro bir-birini qo'llab-quvvatlash, hamkorlik va hurmat qilish, tinchlik va totuvlik asosidagi uyg'un, do'stona munosabatlarini mustahkamlashga hamda rivojlantirishga intilib" degan mazmundagi band kiritilganligi ham alohida e'tiborga molik. Mazkur norma yangi O'zbekistonning jahon hamjamiyati va eng avvalo, qo'shni mamlakatlar bilan o'zaro bir-birini qo'llab-quvvatlash, hamkorlik va hurmat qilish, tinchlik va totuvlik asosidagi uyg'un, do'stona munosabatlarini mustahkamlashga hamda rivojlantirishga intilishi mazmunan mafkuraviy, g'oyaviy va siyosiy jihatdan yo'naltirilganligidan dalolatdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi² tashqi siyosatning mazmun-mohiyatini belgilab beruvchi bobining 17-moddasida O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyekti ekanligi, O'zbekistonning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning buzilmasligi, davlatlarning hududiy yaxlitligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsiplariga hamda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa prinsip va normalariga asoslanishi, 18-moddasida esa, O'zbekiston Respublikasi davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko'p tomonlama munosabatlarni har taraflama rivojlantirishga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshirishi hamda O'zbekiston Respublikasi davlatning, xalqning oliy manfaatlaridan, uning farovonligi va xavfsizligidan kelib chiqqan holda ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi hamda ulardan chiqishi mumkinligi haqidagi konstitutsion qoidalar o'z ifodasini topgan.

¹ <https://yuz.uz/news/ozbekiston--tashqi-siyosatda-dostona-va-tinchliksevar-davlat?viewmsk-yigilishida-referendumga-tayyorgarlik-masalasi-muhokama-etildi>.

² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: "O'zbekiston", 2023 y.

Bosh Qomusimizda davlat tashqi siyosatida tamoyillar sifatida inson huquq va erkinliklarini hurmat qilish tamoyili, tashqi chegaralarning buzilmasligi (yaxlitligi) tamoyili, davlatlarning hududiy yaxlitligi tamoyili, nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish tamoyili kabi tamoyillarga og'ishmay amal qilishi belgilab qo'yilgan.

Yangi O'zbekistonning har bir davlat bilan tashqi siyosat olib borishdagi do'stona munosabati, tashqi siyosiy faoliyatning eng muhim vazifalari sifatida O'zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzi, o'rni va obro'sini mustahkamlashga qaratilgan barcha davlatlar va nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan strategik hamkorlik va do'stlik munosabatlarining barqaror tizimini barpo etish, xorijiy mamlakatlar bilan do'stona, teng huquqli munosabatlarni va o'zaro manfaatli hamkorlikni muttasil va izchil rivojlantirishga qaratiladi.

Yangi O'zbekistoning tashqi siyosatida tinchliksevar davlat sifatida jahonga yuz tutishi mamlakatimizning tashqi siyosatda tinchlikparvarlikka asoslangan, yuzaga keladigan ziddiyat va qarama-qarshiliklarni faqat tinch, diplomatik va siyosiy vositalar bilan hal etishga qaratilgan yo'ldan borishni afzal ko'rishi o'zgacha joziba baxsh etadi.

Ma'lumki keyingi yillarda O'zbekiston nafaqat qo'shni davlatlar bilan, balki uzoq xorij davlatlari bilan ham turli sohalarda, jumladan, siyosiy, iqtisodiy, madaniy-gumanitar, tibbiyot, fan-ta'lim va boshqa barcha sohalarda keng qamrovli munosabatlarni o'rnatib kelayotganligini guvohi bo'lib turibmiz.

Bugungi kunda, ochiq aytish mumkin, aynan O'zbekiston Respublikasi (Davlat rahbari)ning say'-harakatlari jahon mamlakatlarning nafaqat O'zbekistonga, balki butun boshli Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlarga e'tibori o'zgarib bormoqda. "Markaziy Osiyo – AQSH", "Markaziy Osiyo – Yevropa ittifoqi", "Markaziy Osiyo – Koreya Respublikasi", "Markaziy Osiyo – Yaponiya" kabi muloqot formatlari qatoriga oxirgi yillarda "Markaziy Osiyo – Hindiston", "Markaziy Osiyo – Xitoy" va "Markaziy Osiyo – Rossiya Federatsiyasi" singari yangi formatlar qo'shildi. Mazkur holat, birinchidan, mintaqadagi ijobiy o'zgarishlar natijasida yuzaga kelgan mutlaqo yangi muhit dunyoning yetakchi davlatlari tomonidan Markaziy Osiyoga nisbatan e'tiborning oshganini ko'rsatsa, ikkinchidan, chet el davlatlari mintaq mamlakatlari bilan nafaqat ikki tomonlama hamkorlik doirasida, balki yagona mintaqaviy ko'p tomonlama munosabatlarni rivojlantirishga ahamiyat qaratayotganidan dalolatdir.³

Qolaversa, mintaq hamda boshqa davlat va xalqaro institutlar o'rtasida yangi formatlarning tuzilishi bu, Markaziy Osiyoning geosiyosiy va iqtisodiy ahamiyati oshib borishiga,

³ E.Tulyakov, F.Xakimov. <https://strategy.uz/index.php?news=1278>.

shuningdek, mintaqaga xalqaro munosabatlardagi yaxlit siyosiy-diplomatik subyekt sifatida qaralishiga olib kelmoqda.

Xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida 2023 yil 11 sentyabr PF-158-son Farmoni⁴ qabul qilindi. Ushbu Farmonda O'zbekiston Respublikasining 2030 yilgacha bo'lgan taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari belgilab olingan bo'lib, unga ko'ra "Xavfsiz va tinchliksevar davlat" tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish barobarida kelgusida quyidagi islohotlar amalga oshirilishi hamda ulardan kelib chiqib quyidagi vazifalar bajarilishi lozim, jumladan, Yangi O'zbekiston tashqi siyosatini xalq va davlatning manfaatlaridan kelib chiqqan holda izchil amalga oshirish:

- dunyodagi mavjud murakkab vaziyatda ochiq, pragmatik, faol va yaxshi qo'shniçilik tashqi siyosati olib borilishini izchil davom ettirish;

- hamkor mamlakatlar bilan va nufuzli xalqaro tashkilotlar doirasida mintaqaviy va global masalalar bo'yicha muvozanatli va doimiy muloqotlar o'rnatish;

- barcha qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shniçilik va strategik sheriklik munosabatlarini jadal rivojlantirish, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va gumanitar yo'nalishlardagi ikki va ko'p tomonlama muzokaralarni muntazam va samarali olib borish.

Markaziy Osiyo mintaqasida amaliy hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, bunda ya'ni,

- mintaqada turli ustuvor yo'nalishlar, ayniqsa, ekologiya va tabiatni muhofaza qilish, suv resurslaridan oqilona foydalanish, transport-kommunikatsiya infratuzilmalarini yana-da rivojlantirish borasidagi yaqin hamkorlikni kuchaytirish;

- Markaziy Osiyoda xalqaro huquq va mintaqadagi barcha davlatlar milliy manfaatlarini inobatga olgan holda keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini chuqurlashtirish;

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida 2023 yil 11 sentyabr PF-158-son Farmoni.

- Markaziy Osiyo davlatlari hududida fuqarolar erkin harakati, shuningdek, tovarlar, xizmatlar va kapitalning sun'iy cheklovlarsiz aylanishiga bosqichma-bosqich erishish, shuningdek, umumiy sayyohlik makonini shakllantirish ishlarini davom ettirish;

- Afg'oniston bilan ko'p qirrali va o'zaro foydali munosabatlarni rivojlantirish, uning iqtisodiy tiklanishiga yaqindan ko'maklashish, transport-tranzit salohiyatini ro'yobga chiqarishga hissa qo'shish.

An'anaviy sheriklar bilan o'zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish, xalqaro hamkorlik geografiyasini kengaytirish, global ishlab chiqarish va yetkazib berish zanjirlariga qo'shilish, ya'ni bu borada:

- Milliy manfaatlarni ilgari surish va himoya qilishda iqtisodiy diplomatiya samaradorligini oshirish va uni faollashtirish;

- Yevropa mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy, moliyaviy, investitsiyaviy va texnologik hamkorlikni rivojlantirish, keng ko'lamli sheriklik va amaliy hamkorlikning huquqiy asoslarini yana-da mustahkamlash;

- Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi davlatlar bilan hamkorlikni kuchaytirish, mintaq bozorlariga eksport hajmi va nomenklaturasini ko'paytirish hamda mamlakatimizga investitsiyalar oqimini oshirish;

- Janubiy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq, Afrika mintaqasidagi mamlakatlar bilan mavjud aloqalarni yana-da kengaytirish, yangi va istiqbolli yo'nalishlarda o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yish, keng mintaqalarni bog'lovchi va O'zbekistonni jahon bozoriga chiqishiga imkon yaratuvchi transport-logistika yo'laklarini shakllantirish;

- Amerika mamlakatlari, xususan, AQSH bilan yangi davrda strategik sheriklik va har tomonlama hamkorlik aloqalarini tobora kengaytirish, investitsiya, eksport va ilg'or texnologiyalar sohalaridagi aloqalarni kuchaytirish.

Jahon savdo tashkilotiga to'laqonli a'zo bo'lish: Milliy qonunchilikni va huquqni qo'llash amaliyotini Jahon savdo tashkilotining qoida, me'yor va bitimlariga moslashtirish.

Jahon savdo tashkilotiga a'zo davlatlar bilan bozorlarga kirish bo'yicha muzokaralarni tizimli olib borish va a'zo bo'lish jarayonini samarali yakuniga yetkazish.

So'zimiz yakunida, yangi O'zbekistonning tashqi siyosatda do'stona va tinchliksevar davlat sifatida konstitutsiyaviy e'tirof etilishi uning diplomatik nufuzini yana-da oshirishda muhim o'rin tutadi deb aytish mumkin.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 2023 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risida 2023 yil 11 sentyabr PF-158-son Farmoni.
3. E.Tulyakov,F.Xakimov. <https://strategy.uz/index.php?news=1278>.
4. <https://yuz.uz/news/ozbekiston-tashqi-siyosatda-dostona-va-tinchliksevar-davlat?viewmsk-yigilishida-referendumga-tayyorgarlik-masalasi-muhokama-etildi>.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi 2022-yil 20-dekabr. <https://review.uz/oz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil-uchun-murojaatnomasi>.



MODERN SCIENCE
& RESEARCH